

Ko'nglim nimadandir g'ash. Shahar ko'chalarida beparvo aylanib yuribman. Odatim shunaqa, yuragimda g'ashlik paydo bo'lidi deguncha, ko'chaga yuguraman. Ba'zan ko'cha hayoti odamga minglab sahifalik kitoblardan ham ko'proq saboq berishi mumkin. Ko'chalar, g'aribona kulbalar so'qir ko'zlarga bamisoli oftobdir. Hayotni o'rganishni istagan kishi ko'chaga chiqsin... Katta jome' zinasida bir ayol o'tirardi. Atrofida besh-o'nta yosh-yalang to'planib, uni gapga solib kulishardi. To'g'ri ular tomonga yurdim. Ust-boshi bir ahvolda, yuzi oftobdan kuygan, sochlariga oq tushgan, nighohlari ma'yus bechorahol ayol tinmay yig'lardi. Bunchalar ich-ichidan, qandaydir umid bilan yig'lagan odamni hayotimda uchratmagandim. Umr manzillarining anduhli soyasi ajin solgan yuzidan ko'z yoshlari duv-duv to'kilardi. Bu ko'z yoshlarning adog'i ko'rinnmasdi. Xuddi bahor yomg'iriga o'xshardi. Ayolni zimdan kuzatayotgan yigitchanidan:

"Bu ayol nega yig'layapti?" deb so'radim. U menga hayratmuz tikilib:

"Bu ayolni tanimaysizmi, akajon? Uni yoshli Maryam, deydilar. U oddiy bir tilanchi, xolos. Odamlarni atrofiga to'plab olib, ho'ng-ho'ng yig'laydi. Keyin esa pul yig'ishga tushadi", dedi.

Gapimizga qulq solayotgan bir bolakay:

"Bu ayolning kasbi yig'lash... Xuddi aktyorlardek o'zini majburlamasdan yig'laydi. Bunchalik ko'zyosh qaerdan kelarkin-a? Nima bo'lganda ham istagan paytda yig'lay oladi. Boshqasiga esa mening ham aqlim yetmaydi", dedi.

Ayol ikki qo'lini tizzalariga urar, mavludxonlardek goh egilib, goh boshini ko'tarib ho'ngrab yig'lardi. Yig'lar va to'xtovsiz gapirinardi:

"Oh, mening qora qismatim! Oh, darddan chiqmagan boshginam! Voh, yoqamga yopishgan balo-qazolar-e!"

Uning diydiyosi yig'isiga monand g'amgin ohang berardi. Lablari titrar, kiprikBlari pirpirab, yuz mushaklari taranglashardi. Boshiga uvadasi chiqqan oq ro'mol yopingan, egnida rangi o'chgan ko'ylak. Ko'ylagi ustidan askarlarning bo'z nimchasini kiyib olgan edi. Ayolning go'zalligi, asl qiyofasi g'am-g'ussa ortiga yashiringanini uqish mumkin edi.

Yig'i fursati tugagach, qo'ynidan mis idishni chiqardi. Tomoshabinlar idishga pul tashlashdi. Ayol xursand bo'lib, pullarni ro'molining uchiga tugdi; ko'z yoshlarini artib, ko'cha tomonga qarab yura boshladi. Uning ortidan ancha vaqtgacha kuzatib turdim: ayolning beli bukilib, tizzalari qaltilrab, beso'naqay yurib borardi. Xuddi butun Onado'li xalqining dardini orqalab ketayotgandek...

Bir haftadan so'ng uni bozor tomonda uchratib qoldim. U bir burchakka tiqilib, uzuq-yuluq yig'lab turardi. Atrofiga besh-o'ntacha odam to'plangan, yig'isi "qovushmayotganidan" "beshta odamga ham yig'laymanmi?" degan iddao sezilib turardi. Ba'zida yo'ldan o'tayotganlarga qo'li bilan imo qilib:

"Keling, mana, yig'ini boshlayapman!" deya baqirib qo'yardi. Ovozi chuqur quduqdan kelayotgan sasga o'xshardi. Uning qiliqlari tsirkdag'i masxarabozni eslatar, negadir o'sha kuni yig'lashga o'zida rag'bat topolmasdi. Ayolning yoshga to'la ko'zlarini yaqindan ko'rish ilinjida uning qarshisiga cho'kdim. Ko'zlarining oqi dudli edi. O'tirganimning ma'nisini tushunmay, yoqasini yopdi, u meni badmastlardan deb o'yaldi, shekilli.

"Bunchalik ko'z yoshlarni qaerdan topasan, Maryam?" dedim uning ko'zlariga tikilib.

Ayol o'yga tolib:

"Soylar, irmoqlar shuncha suvni qaerdan topishini hech o'ylab ko'rganmisan?" dedi.

"Soylarning ortida dengizlar bor, bulutlar esa uning xizmatida", dedim men. U mengamas allaqayoqlarga ko'z tikib:

"Insонning ko'ngli ham bamisoli dengiz, ko'zlarimning bulog'i suvni shu dengizdan oladi," dedi va qo'shib qo'ydi: "Men yigirma yildan beri yig'layman. Na dengiz quridi, na buloq suvi to'xtadi..."

Yigirma yil yig'lash. Ko'zyosh to'kish... Bu ayolning qalbida kitoblarda yozilmagan boylik borga o'xshaydi. U hali ham gapida davom etardi:

"Yigirma yil yig'ladim. Kulguni, tabassumni unutdim... O'n yil o'zim, qora qismatim uchun yig'ladim... So'ng xalq dardi va bir burda non topish ilinjida yig'ladim...", dedi. Yig'lashda davom etdi. U yig'lab pul to'plardi. To'g'ridan-to'g'ri odamlarga qo'l cho'zib tilanishni o'ziga ep ko'rmasdi. Ha, qarshimda yig'ini kasb qilib olgan mohir san'atkor turardi.

Tomoshabin yoshlardan biri:

"Maryam, sening biror hunaring yo'qmi?" dedi. Ayol yigitchaning yuziga qahrlanib qaradi. Yutinib:

"Yana qanday hunarim bo'lishimi xohlaysan? dedi. Raqsga tushishim kerakmi? Mastlarga mazax bo'laymi? Hayotda hamma ishni qildim, biroq nomusimni sotmadim... Keyin, seningcha, yig'lash shunchalik osonmi?".

"Maryam, dedim, kel, ozgina kulgin!.. Agar kulsang, senga besh lira beraman..."

Ayol menga g'alati qarab qo'ydi. Qo'li bilan "ket" deya ishora qildi. "Qani, bir kul-chi!" deb takrorladim. Jahli chiqdi. So'lg'in yuzini panjalari bilan berkitdi. Telbalarcha tipirchilab:

"Men bilan hazillashma! Shu paytgacha, bu shaharda mendan kulishni talab qilgan odamni hech uchratmagan edim..." dedi.

"Kulsang, besh lira beraman", dedim. Unga pulni ko'rsatdim. U jahl bilan:

"Sen o'ylaganchalik pul gadosi emasman, menga pulingni ko'rsatma! Kulolmayman! Yigirma yildan buyon yig'layman, qanday kulayin?" dedi. Yonimdag'i yoshlar ham uni qistovga olishdi. U bunday taklifni sira qabul qilolmadi.

"Shu bugungacha odamlar mening yig'lashimni istadi. Yig'laganimga pul berishdi. Kulguga pul berilmaydi... Yana shuni ham bilingki, kulgan odamning pulga ehtiyoji bo'lmaydi. Meni o'z holimga qo'ying! Men masxaraboz emasman; xohlaganda kulib, xohlaganda yig'lovchi...", dedi. Uni qayta qistovga oldik:

"Bugun bir martagina kulgin! O'zgarish qilaylik. Juda ko'p pul beramiz", dedik.

Yoshli Maryam nihoyat taklifimizga rozi bo'ldi. Ko'z yoshlarini artdi. Ro'molini dahani tagidan bog'ladi. Yuzini oftobga o'girdi.

Oftob nurlari ko'zlarini qamashtirdi. Kipriklaridagi tomchilar tonggi shabnamdek yaltirardi. Dudoqlarini cho'zib, sarg'aygan tishlarini ko'rsatdi. Og'zini ochganida yuzida chuqur chiziqlar paydo bo'lidi. Yutinib, chuqur-chuqur nafas oldi. Biroq negadir kula olmadi. Ko'zlaridagi ifodani o'zgartirishning ilojini topolmayotgan edi. U qanchalik kulishga harakat qilmasin, ko'zidan faqat yosh dumalardi. Chamasi besh daqiqqa o'zini majburladi. Barmoqlari bilan yonoqlarini tortdi. Ko'zlarini harakatga keltirdi. Nihoyat, noiloj qoldi:

"Kulolmayman, Xudo haqi, kulolmayman! Kulishni unutib yuborganman", dedi. Ayolning kulish uchun o'zini zo'rashi, yig'isidan ham fojialiroq edi. Yig'layoutganida faqat yuz chizgilar, ovozi, ko'zlar ishtirot etsa, kulguga chog'langanda, butun vujudini majburlardi. Ichimdan: "Kulolmaysan, Maryam! Bu shaharda boylar yig'ini, g'ariblar kulguni unutganlar..." deya ko'nglimdan o'tkazdim. Tomoshabinlar:

"Qani, g'ayrat qil!" deb baqirardi. U qaytadan o'zgardi. Harakat qildi, lekin qo'lidan kelmadi. Ayol yana yig'lay boshladi. Bu gal u

This is not registered version of TotalDocConverter

pul qurishas, shaxs ham ko'zlarimiga yosh keldi. Mening ham ko'zlarimga yosh keldi. Dilim og'riddi. Ayol qalbimda sevgi dengizlarini toshdirgan edi. Barcha dinlar, falsafiy qarashlar, buyuk shaxsBlar sevgini, inson sevgisini talqin qilishardi. Dunyoda samimiy sevgidan ham buyukroq va asl tuyg'u bormi?! Ayolning kulish uchun qilayotgan urinishlari, menda inson sevgisini uyg'otdi. Uni borlig'im bilan sevardim...

"Keting bu yerdan, Alloh rozi bo'lisin, keting!" deya baqirdi Maryam. Men kula olmayman... Yigirma yildan beri ko'zlar yosha g'arq bo'lgan Maryamga bugun kulish harom... Men Erzinjon zilzilasida kulguni yo'qotdim. Unda umr yo'ldoshim halok bo'ldi. Bolalarimdan ayrildim. Onam bu dunyoni tark etdi, qo'shnilarim, qarindoshlarim o'lib ketishdi. Infosiz qora tuproq qanchadan-qancha yaqinlarimni yutdi. Go'yo bo'ri talagan suruvdan ortda qolgan yarador qo'yga aylandim. Bir marotaba bo'lsa ham o'sha la'nati tuproqqa qaytmadim. Qayrilib qaramadim ham. Bu dardlar yuragimda tog'day ulg'aydi. Ko'z yoshlari daryo bo'ldi... Qarshidandan chiqqanlar mendan nimanidir istadi. Navnihol edim, go'zal edim. Endi yuz ochayotgan g'unchaga o'xshardim... Ishlashni xohladim, ammo meni haydashdi. Cho'rilik qildim, uy sohiblari menga ko'z olaytirdi. Yolvordim, urdilar. Yig'ladim, ustimidan kulishdi. Qassob do'konlarida osilgan go'shtga aylandim; kelgan ham, ketgan ham meni turtib ketardi. Onado'li qozon, men esa cho'mich bo'ldim... Yig'ladim, betinim yig'ladim. O'n yil, roppa-rosa o'n yil ko'zlarim irmoq, etagim dengiz bo'ldi... Menga "kul", demang! Yetim qo'zi ma'ramas, azob chekkan yayramas... Kulguni unutdim. Yig'la, desangiz, yig'layman. Ammo kulmayman. Kulmayman, yigirma yil ortda qoldi. Sakson, to'qson, bir kun kelib yo'q bo'larman. O'limimni kutyapman. Eng so'nggi umidim o'lim, o'lim xaloskorim... Zilzila barcha kulguyu quvonchimni Qof tog'inining orqasiga olib ketdi. Mening hunarim yig'lash... Taqdirimi o'zgartira olmayman... Bunga majolim yetmaydi... Aslo kuchim yetmas... yetmas... Kuchim yetmas... Yetmas... Yetmas..."

Marash, 1966.